O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Bodom yong‘og‘i mag‘zini sotish va uning sifatini nazorat qilish standarti

(DDP-06:2024, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #SMRROMS5DQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25 fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart DDP-06:2024 “Concerning the marketing and commercial quality control of almond kernels” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #SMRROMS5DQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam beradi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, ishlab chiqaruvchilarning rentabelligini oshiradi va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va qishloq xo‘jaligi tovarlarining keng doirasini, shu jumladan yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli ishtirok etishi mumkin. YeIK qishloq xo‘jaligi standartlari to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Bodom yong‘og‘i mag‘zi uchun standartning ushbu nashri Ishchi guruh tomonidan uning yetmish to‘qqizinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2024/10 hujjati asosida tayyorlangan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #SMRROMS5DQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

BODOM YONG‘OG‘I MAG‘ZINI SOTISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORATI QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ, КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ЯДЕР ОРЕХОВ МИНДАЛЯ

STANDART CONCERNING THE MARKETING AND QUALITY CONTROL OF ALMOND KERNELS

Amalga kiritish sanasi -25 mart 2026 y.

I. Mahsulotning ta’rifi

Ushbu standart shirin bodomning, Prunus amygdalus Batsch, sinonimi Prunus dulcis (Mill.) D.A. Webb turidan kelib chiqqan butun bodom yong‘og‘i mag‘zilariga nisbatan tatbiq etiladi.

Standart quyidagi mahsulotlarga nisbatan qo‘llanilmaydi:

- bodom mag‘zilarining yarimtalari, bo‘laklari, zarrachalari, tilimlari yoki siniq parchalari;
- tuzlash, shakarlash, xushbo‘ylantirish yoki qovurish yo‘li bilan ishlov berilgan, blanshirlangan bodom mag‘zilari;
- sanoat maqsadida qayta ishlash uchun mo‘ljallangan bodom mag‘zilari.

II. Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi – tayyorlash va qadoqlashdan keyin bodom yong‘og‘i mag‘zilariga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Eksport yoki jo‘natmadan keyingi bosqichlarda standartni qo‘llashda mahsulot egasi yoki sotuvchi uning talablariga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi. Egasi/sotuvchi mahsulotni faqat mazkur standartga muvofiq holda namoyish etish, sotuvga taklif qilish, yetkazib berish yoki boshqa har qanday usulda realizatsiya qilishi mumkin.

A. Minimal talablar[1]

Bodom yong‘og‘i mag‘zilari barcha sinflar bo‘yicha, har bir sinf uchun belgilangan maxsus shartlar va qo‘yimlar hisobga olingan holda, oddiy ko‘z bilan yoki zarur hollarda ko‘rish o‘tkirligini 20/20[2] gacha tuzatuvchi vositalar yordamida baholanganda quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

---

[1] Atamalar va nuqsonlarning ta’riflari standartlarning namusinfiy shaklining "Quruq (yong‘oq po‘chog‘i va yong‘oq mag‘zi) va quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etiladigan atamalar va nuqsonlarning ta’riflari" nomli III ilovasida keltirilgan https://unece.org/trade/wp7/DDPStandards.

[2] Nuqsonlarni baholashda lupa, binokulyar optika yoki boshqa kattalashtiruvchi uskunalar qo‘llanilmaydi.

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #SMRROMS5DQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mag‘zi quyidagicha bo‘lishi kerak:

- shikastlanmagan; yetishmaydigan qismi bir sakkizdan kam bo‘lgan mag‘zilar butun hisoblanadi;
- sog‘lom va sifatli; chirigan yoki buzilib, inson iste’moli uchun yaroqsiz holatdagi mahsulotga ruxsat etilmaydi;
- toza, amalda ko‘rinadigan begona moddalarsiz;
- yetarli darajada rivojlangan; juda yassi va chuqur burishgan, shuningdek yuzasining 25 foizidan ortig‘ini qoplagan suvsizlanish, qurib qotish belgilariga ega mag‘zilar qabul qilinmaydi;
- umumiy 25 foizidan ortiq yuzani qoplagan, qolgan qismiga yaqqol zid rang o‘zgarishlari, sarg‘ayish, yog‘ diffuziyasi yoki dog‘larsiz;
- diametri 7 mm dan katta qismni yoki 32 mm² dan ortiq maydonni qoplagan yopishqoq smolaga o‘xshash moddalarsiz;
- 8 mm² dan ortiq maydonni qoplagan jigarrang dog‘lanishsiz;
- 6 mm dan katta o‘lchamdagi siniqlar va tirnalishlarsiz;
- yaxshi shakllangan;
- rivojlanish bosqichidan qat’i nazar tirik hasharot zararkunandalarsiz;
- zararkunandalar yetkazgan zararlarsiz, jumladan o‘lik hasharot va/yoki kanalarning qoldiqlari hamda ajratmalarsiz;
- oddiy ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘or tolalarisiz;
- achchiqlanmagan (progorkliy emas);
- me’yordan ortiq yuzaki namliksiz;
- begona hid va/yoki ta’msiz.

Bodom mag‘zilarining holati shunday bo‘lishi kerakki, ular:

- transportirovka, ortish va tushirish ishlariga bardosh bera olsin;
- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borsin.

B. Namlik miqdori[3]

Bodom yong‘og‘i mag‘ziaridagi namlik ulushi 6,5 foizidan oshmasligi kerak.

C. Tasniflash

“IV. Nuqsonlar bo‘yicha qo‘yimlar” bo‘limida keltirilgan me’yorlarga muvofiq, bodom yong‘og‘i mag‘zilari quyidagi sinflarga bo‘linadi:

- exstra sinf,
- birinchi sinf,
- ikkinchi sinf.

Qo’yim nuqsonlar mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishi, sifati, saqlanuvchanligi va qadoqdagi tovar ko‘rinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.

III. Kalibrlashga oid qoidalar

Bodom mag‘izlarini o‘lcham diapazonlari yoki bitta cheklov bo‘yicha kalibrlash: oliy va birinchi sinflar uchun majburiy, ikkinchi sinf uchun ixtiyoriy.

---

[3] Namlik miqdori BMT YEIKning quruq va quritilgan mahsulotlarga standartlarining Namusinfiy shakliga II ilovada ko‘rsatilgan 1 va/yoki 2-usul yordamida aniqlanadi. Spora paydo bo‘lganda laboratoriya etalon usulidan foydalaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #SMRROMS5DQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Kalibr bodom mag‘izsining maksimal ko‘ndalang kesim diametri bo‘yicha, dumaloq yoki cho‘ziq teshikli elaklar yordamida aniqlanadi. Boshqa kalibrlash tizimlaridan ham foydalanish mumkin. Boshqa o‘lchash va saralash tizimlari, masalan, 100 g yoki unsiya (28 3495 gramm) dagi bodom donalari soniga asoslangan tizimlar qo‘llanilishi mumkin.

• O‘lcham millimetrlarda ifodalangan minimal va maksimal o‘lchamlar oralig‘i bilan belgilanadi, bunda farq 2 mm dan oshmasligi kerak. Donalar soni ko‘rsatilgan hollarda, bodom mag‘izlari bir xil o‘lchamda bo‘lishi va o‘rtacha soni ko‘rsatilgan oraliqda bo‘lishi lozim.

• Saralash millimetrlarda ifodalangan minimal o‘lcham, keyin "va undan yuqori" so‘zlari yoki boshqa shunga o‘xshash iboralar bilan, yoki 100 grammda yoki bir unsiyada bo‘lgan mag‘izlarning maksimal soni, keyin "va undan kam" so‘zlari yoki boshqa shunga o‘xshash iboralar bilan ifodalanadi.

Shu bilan bir qatorda, saralash (elash) ko‘rsatkichi millimetrlarda ifodalangan maksimal o‘lcham va undan keyin keladigan «va undan kam» so‘zlari yoki boshqa ekvivalent iboralar orqali yoxud 100 g yoki unsiyadagi mag‘izlarning minimal soni va undan keyin keladigan «va undan ko‘p» so‘zlari yoki boshqa ekvivalent iboralar orqali ifodalanishi mumkin. Yakuniy iste’molchiga «saralangan» belgisi ostida taqdim etiladigan mahsulotlar uchun ushbu muqobil usuldan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

IV. Qo’yimlar bo‘yicha qoidalar

Savdoning barcha bosqichlarida har bir to‘plamda sifat va kalibr bo‘yicha minimal talablarga javob bermaydigan cheklangan ulushdagi mahsulotga ruxsat etiladi.

Yo‘l qo‘yiladigan nuqson	*Qo’yim chetlanishlar, mahsulot miqdori yoki og‘irligi bo‘yicha nuqsonli qismning foiz nisbati*		
	“Exstra”	*Birinchi sinf*	*Ikkinchi sinf*
a) Minimal talablarga javob bermaydigan bodom mag‘zi uchun yo‘l qo‘yiladigan chegaralar,	5	10	15
ulardan ko‘pi bilan: yetarli darajada rivojlanmagan, qurib qolgan va burishib ketgan mag‘izlar	1	2	4
mog‘orlagan mag‘izlar	0,5	0,5	1
Achiganlik yoki zararkunandalar tomonidan shikastlangan, chirishning yoki buzilishning izlari mavjud bo‘lgan mag‘izlar	1	2	3
smolali, qo‘ng‘ir dog‘li, yuzasida nuqsonlari va rangida o‘zgarishlari bo‘lgan mag‘izlar	2	3	6
mag‘iz bo‘laklari	1	1	3
maydalangan va singan mag‘izlar	1	3	5
tirik hasharotlar bilan mag‘izlar	0	0	0
b) Ko‘rsatilgan kalibrga mos kelmaydigan mahsulot uchun kalibr bo‘yicha qo’yim chegaralar (kalibrlash holati uchun), umumiy:	10	10	15
c) Boshqa nuqsonlarga oid qo’yim chegaralar: begona aralashmalar (organik kelib chiqishli), masalan, bo‘sh po‘choq, po‘choq bo‘laklari, meva po‘sti qoldiqlari, chang (og‘irligi bo‘yicha) hamda begona moddalar (noorganik kelib chiqishli), jumladan toshlar, metall va shisha (og‘irligi bo‘yicha)	0,15	0,25	0,25
siniq va tirnalgan mag‘izlar	5	10	20
juft yoki qo‘shaloq mag‘izlar	5	15	20

STANDARTLAR INSTITUTI #SMRROMS5DQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ko‘rsatilganlardan tashqari, boshqa sinflarga yoki tijorat turlariga mansub pekan yong‘og‘i mag‘izlari	5	5	5
achchiq bodom yong‘og‘i mag‘zi	1	1	2

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning[4] tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat kelib chiqishi, sifati, sinfi yoki tijorat turi, hosil yili (agar ko‘rsatilsa) hamda o‘lchami (kalibrlanish o‘tkazilgan holda) bir xil bo‘lgan bodom mag‘zidan iborat bo‘lishi lozim.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi uning butun tarkibiga mos kelishi kerak.

B. Qadoqlash

Bodom mag‘zini shunday joylash kerakki, mahsulot to‘g‘ri saqlansin.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza va mahsulotga tashqi yoki ichki zarar yetkazmaydigan sifatli bo‘lishi kerak. Materiallardan, xususan, savdo xususiyatlari ko‘rsatilgan qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga, agar bosma yoki yorliqlar zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim bilan bajarilgan bo‘lsa, ruxsat etiladi.

VI. Tamg‘alash qoidalari

Har bir qadoqda[5] quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan qilib tushiriligan va tashqi tomondan ko‘rinadigan harflar bilan ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

A. Tanitish belgilari

- qadoqlovchi va/yoki yuk jo‘natuvchi nomi;
- nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/tuman/pochta indeksi va mamlakat, agar u kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa) yoki kod belgisi, agar bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMT YEIKning Kod belgilari ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa, vakolatli milliy organ[6] tomonidan rasman tan olingan.

B. Mahsulot xususiyati

- “Bodom yong‘og‘i yadrolari” yozuvi;
- Turi yoki tijorat turning nomi (ixtiyoriy).

---

[4] "Qadoqlash" atamasining ta’rifi BMT YEIKning quruq va quritilgan mahsulotlar uchun standartlarning namusinfiy shaklining III ilovasida keltirilgan.

[5] Markirovkalash to‘g‘risidagi ushbu qoidalar o‘ramlar ichidagi iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

[6] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab etadi.

Biroq, kod belgisidan foydalanilganda, "qadoqlovchi va/yoki yuk jo‘natuvchi" yozuvi (yoki tegishli qisqartma) kod belgisining bevosita yonida joylashtirilishi lozim. Bunda kod belgisidan oldin, agar u kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, tan oluvchi mamlakatning ISO 3166 standartida nazarda tutilgan harfli kodi ko‘rsatilishi shart.

STANDARTLAR INSTITUTI #SMRROMS5DQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

C. Kelib chiqishi

- kelib chiqish[7] mamlakati;
- yetishtirilgan hudud nomi (ixtiyoriy).

_____

[7] To‘liq yoki odatda qo‘llaniladigan nom ko‘rsatilishi kerak.

D. Savdo tavsiflari

- sinf;
- kalibr (III bo‘limga muvofiq);
- hosil yili (ixtiyoriy);
- “yaroqlilik muddati” (ixtiyoriy, sana bilan).

E. Rasmiy nazorat belgisi – ixtiyoriy

- 1986-yilda qabul qilingan;
- oxirgi marta 2024-yilda qayta ko‘rib chiqilgan;
- 2022-yilgi namusinfiy shaklga moslashtirilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #SMRROMS5DQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI